**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ACHILOVA RISOLAT A'ZAMOVNA

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ALLYUZIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

UO‘K: 811.111’37:008:82-3+811.512.133’37:008:82-3

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Content of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Achilova Risolat A’zamovna
Ingliz va o‘zbek tillaridagi allyuziyalarning lingvokulturologik tadqiqi 3

Achilova Risolat Azamovna
Linguocultural Study of Allusions in English and Uzbek Languages 33

Achilova Risolat A’zamovna
Лингвокультурологическое исследование аллюзий в английском и узбекском языках 65

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 70

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ACHILOVA RISOLAT A'ZAMOVNA

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ALLYUZIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Fil 646 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Saidov Yoqub Siddiqovich** filologiya fanlari doktori, (DSc) professor
Rasmiy opponentlar:	**Qosimova Nafisa Farxodovna** filologiya fanlari doktori, (DSc) professor
	Odilov Yorqinjon Raxmonaliyevich filologiya fanlari doktori, (DSc) professor
	Nasrullayeva Nafisa Zafarovna filologiya fanlari doktori, (DSc) professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «21» noyabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1097 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «6» noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «6» noyabr dagi 42 - raqamli reyestr bayonnomasi

B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til nafaqat tizimiy-strukturaviy hodisa sifatida, balki inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatining aksi sifatida o‘rganilishi yangi metodologik paradigma − antroposentrik yondashuvning asosiy maqomga ega bo‘lishiga olib keldi. Mazkur paradigma negizida vujudga kelgan intertekstuallik nazariyasi va pretsedent fenomenlar ta’limoti til birliklarining madaniy-semiotik mazmunini, ularning milliy tafakkur tarzi bilan aloqadorligini va matnlararo munosabatlardagi o‘rnini ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyatini berdi. Aynan shu kontekstda allyuziya hodisasi tilning lingvomadaniy va diskursiv salohiyatini yorqin namoyon etuvchi hamda intertekstual munosabatlarning eng muhim shakllaridan biri sifatida bugungi kunda dunyo tilshunosligining ustuvor tadqiqot obyektiga aylangan.

Dunyo tilshunosligida allyuziyalarni o‘zida ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy, ma’rifiy-ma’naviy, diniy, adabiy axborotni saqlovchi, semantik, lingvopoetik va lingvokulturologik jihatlarni o‘zida to‘liq namoyon etuvchi mental tuzilma hamda potensial birliklar sifatida e’tirof etiladi. Ular boshqa lingvomadaniy birliklar – iqtibos, reminisensiya, metafora, o‘xshatish, pretsedent birliklar, iboralar kabi tilning bebaho boyligi hisoblanadi, til egalarining xotirasida muntazam saqlanib turadi va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida abadiy mavjud bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ingliz va o‘zbek tillshunosligida allyuziyalarni zamonaviy metodologiya va metodlar bo‘yicha o‘rganish, ularning lingvistik tabiati, badiiy matndagi o‘rni yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish, lingvokulturologik aspektlarda o‘rganish, falsafiy, mantiqiy, lisoniy hamda lug‘aviy-estetik xususiyatlarini yaxlit tahlil qilish kabilar yechimini kutayotgan muhim masalalardan biridir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohasidagi keng qamrovli islohotlar, xususan, o‘zbek tilshunosligini, jumladan, qiyosiy-tipologik va lingvokulturologik tadqiqotlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Zero, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi[1]da milliy madaniyatni asrash, til boyligini chuqur o‘rganish va xorijiy tillarga oid qiyosiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish vazifalarning ilgari surilishi mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Ushbu hujjatlar zamirida ko‘tarilgan milliy o‘zlik, til orqali ifodalanadigan madaniy qadriyatlar, jahon ilmiy hamjamiyati bilan integratsiyalashish masalalari bevosita allyuziyalarning lingvokulturologik tadqiqi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois ingliz va o‘zbek tillaridagi allyuziyalarni qiyosiy-tipologik hamda lingvokulturologik aspektda o‘rganish tilshunoslik nazariyasini, lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy-tipologik tilshunoslik, tarjimashunoslik, badiiy matn tahlili va xorijiy til o‘qitish metodikasi sohalarini nazariy va amaliy asoslarini boyitishda dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/5841063?utm

to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-fevraldagi 124-sonli “O‘rta umumta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2].

Allyuziya, intertekstuallik, pretsedent fenomenlar, ko‘p tilli semiotik tizim – semiosfera, madaniy xotira mexanizmlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, York University of Canada (Kanada); Bolonya universiteti (Italiya); University of Chicago (AQSh); University of Edinburgh (Buyuk Britaniya); Yale University (AQSh); University of Tartu (Estoniya); Oxford University (Angliya); University of Bradford (Buyuk Britaniya); University of California (AQSh); Moskva davlat universiteti (RF); Toshkent davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti; Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida semiotik birlik, vertikal, gorizontal kontekst, til shaxsi konsepsiyasiga doir muhim xulosalar chiqarilgan. Semiotik birlik, vertikal va gorizontal kontekst hamda til shaxsi konsepsiyalarining nazariy asoslari va ularning lingvistik tahlildagi ahamiyati ochib berilgan (University of Tartu (Estoniya) – Tartu – Moskva semiotika maktabi asosida belgi tizimlari va madaniy kodlar tahlili ishlab chiqilgan; University of Limo GES (Fransiya) – diskurs va kontekst orqali ma’no hosil bo‘lish jarayonlari izohlangan; Aarhus University (Daniya) – kognitiv semiotika doirasida til va tafakkur o‘zaro bog‘liqligi asoslangan; Lund University (Shvetsiya) – kommunikativ va kognitiv kontekst modellari ishlab chiqilgan; Moscow State University (Rossiya) – til shaxsi (языковая личност) nazariyasi va uning strukturalari yoritilgan; Indiana University (AQSh) – global semiotika va biosemiotika konsepsiyalari rivojlantirilgan; University of Bologna (Italiya) – matn, intertekstuallik va interpretatsiya nazariyalari asoslangan; University of Oxford (Buyuk Britaniya) – pragmatika va diskurs tahlilida kontekstning roli ochib berilgan; University of Toronto (Kanada) – multimodal kommunikatsiya va kontekst tahlili

[2] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy va ilmiy adabiyotlar sharhi https://www.yorku.ca/; https://www.unibo.it/; https://www.uchicago.edu/; https://www.ed.ac.uk/;https://www.yale.edu/; https://www.ut.ee/; https://www.ox.ac.uk/; https://www.bradford.ac.uk/; https://www.universityofcalifornia.edu/; https://www.msu.ru/; https://uzswlu.uz/; https://tsuos.uz/; https://samdchti.uz/; https://buxdu.uz/; https://www.unilim.fr; https://www.au.dk; https://www.lu.se; https://www.utoronto.ca; https://www.hu-berlin.de; https://www.uva.nl; https://www.ub.edu va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

rivojlantirilgan; Humboldt University of Berlin (Germaniya) – til va tafakkur birligi hamda til shaxsi konsepsiyasi falsafiy jihatdan asoslangan; University of Amsterdam (Niderlandiya) – ijtimoiy va kognitiv diskurs tahlili yondashuvlari ishlab chiqilgan; University of Barcelona (Ispaniya) – matn lingvistikasi va pragmatik kontekst nazariyalari chuqur tahlil qilingan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligi doirasida o‘rganilayotgan ilmiy muammo yuzasidan quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilgan:

1. G‘arb adabiyotshunosligi va tilshunosligida Vilgelm fon Gumboldt, M.H. Abrams**,** Karmela Perri, Ziva Ben-Porat**,** Uilliam Irvin**,** Gérard Genette**,** R.Barthes, Yuri Lotman, J.Kristeva, Harold Bloom[3] singari olimlar allyuziya, intertekstuallik, pretsedent fenomenlarni turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etishgan.

2. Rus tilshunosligida dialogizm, adabiy meros bilan kurashish mexanizmi, atribusiyalanmagan iqtibos, matnning kompressiyasi kabi fenomenlar N.A. Fateyeva, I.V. Arnold, I. P. Ilin, A.S. Yevseyev, A.E. Suprun, G. Mints, Y.M. Lotman, G.G. Slishkin, Y.N. Karaulov, V.V. Krasin, D.B. Gudkov, I.V. Zaxarenko, D.V. Bagayeva[4] tadqiqotlarida o‘rganilgan.

3. O‘zbek tilshunosligida allyuziv hodisalarning lingvokulturologik va pragmatik nuqtai nazaridan o‘rganilishi, matn lingvistikasi va intertekstuallik kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, intertekstuallik, allyuziya hodisalari I.K.Mirzayev, Sh.S.Safarov, D.E.Lutfullayeva, D.R.Andaniyazova, D. R. Xoshimova, N.M.Mahmudov, D.X. Xudoyberganova[5] singari olimlar ishlarida kuzatiladi. Biroq mazkur izlanishlarda ingliz va o‘zbek tillaridagi allyuziyalarning

[3] Wilhelm von Humboldt. On Language: On the Diversity of Human Language Construction and Its Influence on the Mental Development of the Human Species, ed. Michael Losonsky. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 54 p.; Abrams, M.H. A Glossary of Literary Terms. 7th ed. – Boston: Heinle & Heinle, 1999. – 366 p.; Riffaterre, M. The Poetics of Literary Allusion // Yale French Studies, no. 55/56, 1977. – 628 p.; Barthes, R. “The Death of the Author.” Aspen, no. 5-6, 1967. – 235p.; in Image-Music-Text, trans. S. Heath, New York: Hill and Wang, 1977– 48 p.; Bloom, H. The Anxiety of Influence: A Theory of Poetry. New York: Oxford University Press, 1973. – 245 p.; Irwin W. “What Is an Allusion?” The Journal of Aesthetics and Art Criticism, vol. 59, no. 3, 2001. – 297 p.; Genette G. Palimpsestes. – Paris: Seuil, 1982. – 87 p.; Kristeva J. Sēmeiōtikē. – Paris, 1969. – 345 p.; Image-Music-Text, trans. S. Heath, New York: Hill and Wang, 1977. – 98 p.;

[4] Fateyeva N.A. Контрапункт интертекстуальности. – Москва: Агар, 2000. – 286 с.; Ильин, И. П. Контрапункт интертекстуальности или интертекст в мире текстов. – Москва: 2000. – 186 с.; Арнольд, И. В. Стилистика английского языка. Москва: Высшая школа, 1981. – 233 с.; Евсеев АС. Основы теории аллюзии (на материале русского языка) (Doctoral dissertation, Ун-т дружбы народов им. П. Лумумбы), 1990. – 343 с.; Минц З.Г. Поэтика интертекстуальности в русской литературе. – Тарту. 1984. – 44 с.; Суприн А.Е. Текстовые реминисценции как языковое явление // Вопросы языкознания. 1995. – 66 с.; Лотмен, Y. M. Структура художественного текста. – Москва: Искусство,1970. –78 с.; Слишкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. – Москва: 2000. – 234 с.; Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность – Москва: Наука, 1987. – 176 с.; Красин В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – Москва: Гнозис, 2002. – 284 с.; Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – Москва: 2003. – 288 с.; Захаренко И.В. Прецедентные феномены в языке и речи. – Москва, 2003. – 76 с.; Багаева, Д. В. Прецедентные феномены в тексте. // Вопросы языкознания, 1997. – 103 с.;

[5]Мирзаев И.К.Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Дис. … докт. филол. наук. – Ташкент: Институт языкознания АНУзССР, 2002. – 472 с.; Safarov Sh. O‘zbek tilining pragmatikasi. – Toshkent, 2008. – 318 b.; Lutfullayeva D.E. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. – 140 b.,Andaniyazova D. An Integrative Approach to Onomastic Units // Oriental Journal of Philology. – 2023. – Vol. 3, No. 4. – P. 9-18., XoshimovaD.R. Linguoculturological Study of the Use of Allusions in English // International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research. – 2022. – Vol. 11, No. 11. – P.320-323., Mahmudov N. Til va nutq.– Toshkent: Fan nashriyoti, 2007. – 318 b.; Xudoyberganova D. O‘zbek tilida intertekstuallik va presedent birliklar. – Toshkent, 2015. – 244 b.

lingvokulturologik, pragmatik, intertekstual va konseptual xususiyatlari qiyosiy-tipologik aspektda yaxlit monografik tarzda tahlil qilinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bo'liqligi. Mazkur tadqiqot Buxoro davlat pedagogika institutining "Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy-tipologik tadqiqi", "Lingvokulturologiya va madaniyatlararo muloqot muammolari" hamda "Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasidagi tadqiqotlar" mavzularidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi allyuziyalarning lingvokulturologik pragmatik, intertekstual va konseptual xususiyatlarini qiyosiy-tipologik aspektda kompleks tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy tilshunoslik kontekstida allyuziya hodisasining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, terminologik va semantik xususiyatlarini o'rganish, allyuziyaning pretsedent birliklar paradigmasidagi o'rnini belgilash, pretsedent nom, pretsedent matn, pretsedent vaziyat hamda pretsedent bayonot bilan struktur-semantik munosabatini va yondosh til hodisalar (sitata, reminissensiya, parafraza, paremiya, frazeologik birikma) bilan o'zaro bog'liqligini tadqiq qilishdagi muammoli jihatlarni umumlashtirish va tizimlashtirish;

lingvomadaniy birliklar tizimida allyuziya mavqeyini belgilash, falsafa va tilshunoslik nuqtayi nazaridan baho kategoriyasi bilan munosabatini aniqlash, matnda voqealanish shakllari va uslubiy funksiyalarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash;

ingliz va o'zbek madaniyatida tarixiy shaxs va asar qahramonlari negizida vujudga kelgan allyuziyalarning umumiy va milliy-madaniy spetsifikasini realiya hamda o'xshatish asosidagi allyuziv birliklarning lingvokulturologik tabiatini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillaridagi allyuziyalarning matn tarkibidagi pragmatik implikatsiya hosil qilish mexanizmlari, semantik o'zgarish hodisalari va diskursiv funksiyalarini belgilash, metaforik va metonimik allyuziyalarning madaniy qadriyatlar tizimidagi o'rnini baholash, konseptual metafora va metonimiya mexanizmlari asosida shakllanish jarayonini dalillash;

intertekstda diniy markerlangan va mifologik allyuziyalarning funksiyalari va lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish, mifopoetik tafakkurning kontekstdagi aksini ingliz va o'zbek tillaridagi qiyosiy-tipologik tahlillar orqali isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek badiiy asarlaridagi tarixiy shaxs, badiiy qahramon, realiya, mifologik, diniy, metaforik va metonimik asosli allyuziv birliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi allyuziyalarning lingvokulturologik, intertekstual pragmatik va stilistik xususiyatlari, ularning shakllanish manbalari, ifodalanish vositalari, matndagi vazifalari hamda ikki madaniyatdagi qiyosiy-tipologik o'ziga xosliklari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, lingvokulturologik, diskursiv, intertekstual, kontekstual, semantik-pragmatik, interpretativ tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

pretsedent birliklarning allyuziv funksiyalari, allyuziyaning vertikal kontekst hosil qilishdagi roli va pragmatik implikatsiya yaratish mexanizmlari aniqlangan, allyuziyalarning lingvomadaniy birliklar tizimidagi o‘rni ingliz va o‘zbek tillarining faktik materiallari bilan belgilangan;

ikkala tildagi allyuziyalar ilk bor qiyosiy-tipologik hamda lingvokulturologik aspektda kompleks tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilib, ikki madaniyatga xos allyuziv birliklarning universal va milliy-madaniy o‘ziga xosligi ilmiy asosda dalillab berilgan;

tarixiy shaxslar va asar qahramonlari asosida vujudga kelgan allyuziyalarning lingvomadaniy xususiyatlari, ularning ingliz va o‘zbek madaniy kodlaridagi semantik-pragmatik salohiyati ochib berilgan, realiya va o‘xshatish asosli allyuziv birliklarning tipologik tasnifi ishlab chiqilgan;

metaforik va metonimik allyuziyalarning konseptual metafora va metonimiya nazariyasi asosida tahlil qilinishi natijasida ularning madaniy qadriyatlar tizimidagi o‘rni va kognitiv-semantik shakllanish mexanizmlari aniqlangan;

diniy markerlangan va mifologik dunyoqarash asosida shakllangan allyuziyalarning madaniy-semantik xususiyatlari, ularning intertekstdagi vazifalari va lingvokulturologik xususiyatlari ingliz va o‘zbek tillari materiali asosida qiyosiy aspektda ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ingliz va o‘zbek tillaridagi allyuziv birliklarning manbalari, mazmun-mohiyati va pragmatik vazifalari bo‘yicha tizimli ma’lumotlar to‘plangan, allyuziyalarning kompleks tasnifi va lingvokulturologik tahlil modeli ishlab chiqilgan;

badiiy matn tahlili amaliyotida qo‘llaniladigan lingvopoetik-lingvokulturologik tahlil sxemasi taqdim etilgan hamda xorijiy til o‘qitish metodikasida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish uchun mo‘ljallangan didaktik materiallar va mashqlar tizimi tavsiya etilgan;

tarjimashunoslik amaliyotida foydalanish uchun ingliz-o‘zbek alluziv birliklar lug‘ati uchun nazariy va metodologik asoslar yaratilgan, elektron lingvomadaniy lug‘atlar va ma’lumotlar bazasini yaratish uchun zarur ilmiy-nazariy asoslar keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy tilshunoslikning nazariy-metodologik tamoyillariga, jumladan antropotsentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, intertekstuallik nazariyasi va pretsedent fenomenlar ta’limotiga asoslangani, tadqiqot mavzusiga doir keng qamrovli xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar, xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalari materiallarining chuqur o‘rganilgani, mukammal nazariy baza yaratilgani, tahlil uchun tanlab olingan ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridagi alluziv birliklarning empirik material sifatida tanlab olinib, tadqiq etilgani, qiyosiy-tipologik, lingvokulturologik, diskursiv, intertekstual, kontekstual, semantik-pragmatik, interpretativ tahlil usullaridan foydalangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, allyuziyaning lingvomadaniy birliklar tizimidagi o‘rni, uning pragmatik implikatsiya va semantik transformatsiya yaratish mexanizmlari, diniy va mifologik allyuziyalarning lingvokulturologik talqini bo‘yicha nazariy xulosalar, natijalar va metodologik yondashuvlar zamonaviy tilshunoslikning lingvokulturologiya, qiyosiy-tipologik tilshunoslik, intertekstuallik nazariyasi, pretsedent fenomenlar ta’limoti, kognitiv tilshunoslik va matn lingvistikasi sohalarini boyitishga, yangi ilmiy konsepsiyalar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalaridan oliy ta’lim muassasalarida “Tilshunoslikka kirish”, “Umumiy tilshunoslik”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Lingvokulturologiya”, “Madaniyatlararo muloqot”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Matn lingvistikasi”, “Stilistika”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Badiiy matn tahlili” kabi nazariy va amaliy fanlarni o‘qitishda, magistratura va doktoranturada yangi maxsus kurslar yaratishda, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda, ingliz tilini chet til sifatida o‘qitish metodikasini takomillashtirishda, badiiy va publitsistik matnlar tarjimasi amaliyotida, lingvomadaniy lug‘atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi allyuziyalarning lingvokulturologik, pragmatik, intertekstual va konseptual xususiyatlarini qiyosiy-tipologik aspektda kompleks tahlil qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

pretsedent birliklarning alluziv funksiyalari, allyuziyaning vertikal kontekst hosil qilishdagi roli va pragmatik implikatsiya yaratish mexanizmlari ilmiy yoritilgan, allyuziya lingvomadaniy birliklar tizimida tutgan o‘rnini aniqlashga oid ilmiy-nazariy xulosalar va metodologik yondashuvlardan Buxoro davlat pedagogika institutida 2024-2025-yillarda bajarilgan 209131-raqamli Buyuk Britaniyaning Tashqi ishlar, Hamdo‘stlik va Taraqqiyot vazirligi hamda Toshkent shahridagi Britaniya elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan “English and Inclusion project within the framework of the “Accelerating English Language Learning in Central Asia” (AELLCA) xalqaro loyihasini bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat pedagogika institutining 2026-yil 2-iyuldagi 397-son ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekistondagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilgan grant loyihalari va ilmiy-tadqiqot ishlari nazariy jihatdan boyitilishiga erishilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi allyuziyalar ilk bor qiyosiy-tipologik hamda lingvokulturologik aspektda kompleks tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilib, ikki madaniyatga xos alluziv birliklarning universal va milliy-madaniy o‘ziga xosligini dalillashga doir umumlashmalardan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 2022-2024-yillarda “Musiqa va san’at o‘quv masalalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv qo‘llanma yaratish” mavzusidagi bajarilgan F3-202003161-raqamli fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2026-yil 12-iyundagi 1/04-64-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek allyuziyalarning mushtarak va farqli jihatlari yoritib berilgan;

metaforik va metonimik allyuziyalarning konseptual metafora va metonimiya nazariyasi asosida tahlillarga doir xulosalardan Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida 2023-2026 yillarda bajarilgan 10112907 – EMPOWER – ERASMUS-EDU-2023-CBHE (Enhancement of Entrepreneurship Skills among Women to Provide Gender Equality and Employability for Citizens of Uzbekistan) mavzusidagi xalqaro loyihani bajarishda foydalanilgan (Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining 2026-yil 16-iyuldagi 2166-03-son ma’lumotnomasi). Natijada allyuziyalarning madaniy qadriyatlar tizimidagi o‘rni va kognitiv-semantik shakllanish mexanizmlari dalillashga xizmat qilgan;

tarixiy shaxslar va asar qahramonlari asosida vujudga kelgan allyuziyalarning lingvomadaniy xususiyatlari, ularning ingliz va o‘zbek madaniy kodlaridagi semantik-pragmatik salohiyati bilan bog‘liq xulosalardan 2024-2025yillarda O‘MTRK “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va Taraqqiyot”, “Millat va Ma’naviyat” ko‘rsatuvlarini tayyorlashda, ssenariylarini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2026-yil 12-iyundagi 26-36-74-son ma’lumotnomasi). Natijada semantik-pragmatik salohiyati ochib berilgan, realiya va o‘xshatish asosli alluziv birliklarning tipologik tasnifi ishlab chiqilgan;

diniy markerlangan va mifologik dunyoqarash asosida shakllangan allyuziyalarning madaniy-semantik xususiyatlari, ularning intertekstdagi vazifalari va lingvokulturologik talqini bilan bog‘liq nazariy xulosalardan Oliy ta’limning 60111800- Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan “Madaniyatlararo muloqot” (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 10-fevraldagi 2821-9769-8ad4-bf63-a166-8802-0553 raqamli nashr ruxsatnomasi) nomli darslikni yaratishda foydalanilgan. (Buxoro davlat pedagogika institutining 2026-yil 7-sentabrdagi 03/03/01-1741-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tilshunoslikka oid adabiyotlar allyuziyalarning madaniy-semantik xususiyatlari, ularning intertekstdagi vazifalari va lingvokulturologik jihatlarining qiyosiy umumlashmalari bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 27 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 26 ta ilmiy maqola, jumladan, 13 tasi respublika va 13 tasi xalqaro jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 242 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha

xorijiy va mahalliy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda e’lon qilingan ishlari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tilshunoslikda allyuziyaning terminologik va semantik talqini**” deb nomlanadi. Unda zamonaviy tilshunoslikda pretsedent, allyuziya va intertekst terminlarining mazmun-mohiyati, qo‘llanish chegarasi hamda ularning o‘zaro aloqadorligi tahlil qilingan. “Pretsedent” va “allyuziya” terminlarining tilshunoslikka kirib kelishi pretsedent birliklar lisoniy shaxs, madaniy xotira va kommunikativ xotira tizimida muhim o‘rin tutishi asoslangan. Bobda V.V.Krasnix, D.B.Gudkov, I.V.Zaxarenko, D.V.Bagayeva, N.A.Fateyeva, I.V.Arnold, G.G.Slishkin va boshqa olimlar qarashlari tahlil qilinib, pretsedent matn, pretsedent nom, pretsedent vaziyat va pretsedent aytim kabi turlar izohlangan. Pretsedent fenomenlarning milliy-lingvomadaniy jamoa a’zolariga tanishligi, kognitiv jarayonda dolzarbligi, nutqda qayta-qayta takrorlanishi va madaniy kodni uzatishdagi vazifasi ochib berilgan. Allyuziya hodisasi intertekstuallikning xususiy ko‘rinishi sifatida baholangan.

Allyuziya tarixiy, adabiy, mifologik, diniy yoki maishiy faktga bevosita yoki bilvosita ishora qilish orqali matnda qo‘shimcha implitsit ma’no hosil qiladi. Tadqiqotda allyuziya iqtibos, reminissensiya, referensiya, qo‘shtirnoqsiz ko‘chirma, parafraza, paremiya va frazeologik birliklar bilan qiyoslangan. Allyuziya iqtibosdan farqli ravishda manba matnni to‘liq takrorlamaydi, balki o‘quvchining madaniy xotirasida mavjud bilimlarni faollashtiradi.

Allyuziv nomlar millat madaniy kodi sifatida voqelanadi. Pretsedent nomlar muayyan xalqning tarixiy xotirasi, badiiy tafakkuri, diniy-mifologik tasavvurlari va ijtimoiy qadriyatlarini ixcham shaklda aks ettiradi. Ular milliy va universal pretsedent nomlarga bo‘linadi. Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatida *Navoiy, Bobur, Amir Temur, Alpomish, Majnun, Layli, Ka’ba, Bog‘i Eram* kabi nomlar, ingliz va jahon madaniyatida esa *Shakespeare, Hamlet, Napoleon, Caesar, Don Quixote, Romeo and Juliet* kabi birliklar turli madaniy assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi.

Allyuziv nomlar badiiy matnda tashqi aloqadorlikni ta’minlaydi, ya’ni turli matnlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yuzaga keltiradi; ichki aloqadorlikni vujudga keltirib, qahramon xususiyatlari bilan pretsedent nom o‘rtasida semantik ko‘prik hosil qiladi; ekspressivlikni kuchaytiradi; onomastik qatlamni boyitadi va badiiy ifodaning semantik sig‘imini oshiradi.

“Pretsedent” va “allyuziya” terminlari tilshunoslikka o‘tgan asrning ikkinchi yarimida Y.N.Karaulov tomonidan qo‘llangan. Ushbu tushunchalar ilmiy muomalaga birinchi bor 1986-yilda rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarining VI Xalqaro kongressida kiritiladi. Y.N.Karaulov “Рол претседентних текстов в структуре функционирования в языковой личности” mavzusidagi ma’ruzasida mazkur atamalarni tilshunoslik ilmi nuqtayi nazaridan birinchi marta asoslab qo‘llaydi. Ushbu ishlanmalarni yanada chuqurlashtirib, olim keyinchalik “Русский язык и языковая личность” asarida “pretsedent” va “allyuziya” terminlarining nazariy-ilmiy jihatlarini kengroq yoritib berdi.

D.B.Gudkov, I.V.Zaxarenko, V.V.Krasnix va D.V.Bagayevalar pretsedent birliklarning mohiyati va xususiyatlariga koʻra ularni quyidagicha tasnif etadi: 1) pretsedent matnlar; 2) pretsedent iboralar; 3) pretsedent vaziyatlar; 4) pretsedent nomlar. Mazkur olimlar pretsedent nomlar tarkibiga iqtibos, aforizm, maqol, matal, shiorlarni kiritishadi.

Pretsedent hodisalar nazariyasining yetakchi vakillaridan biri V.V.Krasnix pretsedent birliklarni toʻrt asosiy turga ajratib oʻrganadi. Ulardan birinchisi, pretsedent matn boʻlib, u tugallangan va yaxlit adabiy yoki madaniy matnlarni anglatadi. Misol tariqasida "Boburnoma" yoki "Hamlet" kabi asarlarni ushbu turga kiritish mumkin. Pretsedent birliklar orasida pretsedent matnlar alohida oʻrin egallaydi. Y.N.Karaulov ularni bir nechta shaxsga taalluqli, ularning bilish va emotsional munosabatlarida ahamiyatli, keng doiraga yaxshi tanish va til egalari nutqida muntazam qoʻllaniladigan matnlar tarzida ta'riflaydi.

Pretsedent matnlar pretsedent birliklarning bir turi sifatida muayyan millat til egalariga xos lisoniy xotirani oʻzida aks ettiradi. Rus tilshunosligida ushbu sohada koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan. V.V.Krasnix pretsedent matnlarni ijtimoiy, milliy va universal turlarga ajratishni taklif etadi. Til egalarining xotirasida nafaqat pretsedent matnlarning oʻzi, balki ularning mazmuniy-kompozitsion tuzilishiga xos shakllar ham mustahkam saqlanib qoladi. Bunday shakllar sirasiga segmentli matnlar, parsellyativ matnlar, oʻxshatish, maqol va metafora asosida qurilgan matnlar, shuningdek, ilmiy uslub va rasmiy hujjatlarga xos matn turlari misol boʻla oladi.

Y.N.Karaulov taklif qilgan "pretsedent matn" oʻrniga V.V.Krasnix va D.B.Gudkovlar "pretsedent fenomen" terminini taklif etishdi. Uning lugʻaviy ma'nosi quyidagicha: "Fenomen" atamasi yunoncha "phainomena" soʻzidan olingan boʻlib, his-tuygʻu orqali idrok etiladigan hodisani, shuningdek, gʻayrioddiy va kamyob voqea, fakt yoki shaxsni anglatadi".

Y.N.Karaulovning qayd etishicha, pretsedent matnlar "xrestomatik" tabiatga ega boʻlib, muayyan tilda soʻzlashuvchi har bir shaxs ularni oʻqish yoki eshitish orqali mazmunini tushunib ola oladi. Pretsedent matnlarni bilish shaxsning zamonaviy madaniy hayotga qoʻshilganligidan dalolat bersa, ularni bilmaslik mazkur tarixiy davr va uning madaniy muhitidan uzilganlikning alomati hisoblanadi. Pretsedent matnlar verbal usuldan noverbal san'at turlariga, jumladan, balet, rassomlik yoki opera, spektakl, badiiy adabiyot kabi boshqa san'at koʻrinishlariga oʻtish koʻprigi vazifasini bajaradi.

Pretsedent fenomenlar til shaxsiyatining nutqiy faoliyatida faol qoʻllaniladi. Pretsedent nom va pretsedent aytimlar verbal fenomenlar toifasiga, pretsedent matn va pretsedent vaziyat esa, verballashtiriluvchi fenomenlar toifasiga mansubdir. Ular murojaat mazmuniga mos pretsedent nom va ifodalar orqali amalga oshiriladi.

I.R. Galperin allyuziya tushunchasiga shunday ta'rif beradi: "Allyuziya tarixiy, adabiy, mifologik yoki diniy manbalardan olingan soʻz va iboralar orqali namoyon boʻlib, ular kundalik muloqot va yozma nutq jarayonida yuzaga keladigan voqea-hodisalar bilan uzviy, ammo bevosita emas, balki yashirin tarzda bogʻlanadi". T.F.Yefremova "Толковий словарь Ефремовой" lugʻatida

allyuziyaga tushunarli va aniq izoh berilgan: “Allyuziya – haqiqiy, taniqli, siyosiy, tarixiy va adabiy faktning ishorasidan foydalanishdan iborat bo‘lgan stilistik uslubdir”.

“Литературная энциклопедия терминов и понятий” ensiklopediyasida allyuziyaga shunday ta’rif beriladi: “Allyuziya (lotincha *allusion* – ishora, hazil) adabiyotda, notiqlik va so‘zlashuv nutqida ma’lum bo‘lgan, adabiy, tarixiy, ko‘proq siyosiy hayot faktiga yoki badiiy asarga ishoradir”. “Oksford allyuziyalar lug‘ati” ingliz tilida qo‘llaniladigan ko‘plab allyuziv ishoralarni aniqlash va tushuntirishga qaratilgan bo‘lib, ularni turli adabiy asarlar va boshqa matnlardan iqtiboslar orqali ko‘rsatishga qaratilgan.

Allyuziyalarning qaysi lingvomadaniyatga mansubligini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Allyuziya atamasi ostida badiiy ijod va notiqlik amaliyotida keng qo‘llaniladigan uslubiy vosita nazarda tutiladi: uning mohiyati tarixda ro‘y bergan voqea-hodisalar yoxud umumtanish asarlarga yashirin ishora va murojaat orqali ifoda topadi. Hozirgi vaqtda allyuziya haqli ravishda tilshunoslikning eng kam ta’riflangan kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Yuqorida birma-bir izohlanganidek, hozirgacha bu hodisaning juda ko‘p ta’riflari keltirilgan. Allyuziya haqidagi ta’riflarning umumiylik jihati ularning qaysi tildan olinganligi va qanday ma’no anglatishi blan bog‘liq. Uning lug‘at va darsliklarda keltirilgan ta’riflari turlicha, tadqiqotchilar allyuziyaning yagona va aniq ta’rifi yo‘q deb hisoblaydilar. U bir qator tegishli tushunchalardan yetarli darajada aniq ajratilmagan.

Aksariyat ta’riflarda allyuziya aniq shaxs, tarixiy voqea va adabiy personaj nomini qayd qilish sifatida ta’riflanadi. Allyuziya bu shunchaki to‘g‘ridan to‘g‘ri havola emas, u ma’lum majoziy ma’noda qo‘llanuvchi uslubiy hodisadir. Masalan, qadimgi yunon qahramoni *Gerkules* ba’zi bir qo‘shimcha ma’nolarni uyg‘otadi, o‘ziga xos xususiyatni o‘zida mujassam etgan so‘z orqali kitobxonga o‘zaro ta’sir o‘tkazadi. Yoki *Venera* go‘zal ayol tasvirini ifodalaydi.

Allyuziv matnga antroposentrik yondashuv aslida tilshunoslikda o‘tgan asrning 70-yillarida yuzaga kelgan vertikal kontekst hamda pretsedent matn haqidagi nazariyalardan oziqlangan holda yuzaga keldi. Vertikal kontekst, bu nazariyani ilgari surgan O.S.Axmanova va I.V.Gyubbenet fikriga ko‘ra, o‘zida implitsit matn mazmunini saqlovchi matndir. Yashirin mazmunga ega bo‘lgan implitsit matn tag ma’no, ishora va allyuziya singari turli til vositalari yordamida shakllanadi. Matn mohiyatidagi bu yashirin ma’no-mazmunni esa o‘quvchi o‘zi kashf etib, tiklashi talab qilinadi.

Har bir xalq uchun o‘ziga xos madaniyat va qadriyatlar tizimi mavjud, shuning uchun ularning har biri o‘ziga xos, faqat shu xalqqa xosdir. Qadriyatlar madaniyatda to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalanadi, chunki ular madaniyatning faoliyat ko‘rsatish vositasi hisoblanadi. Madaniyat ishlab chiqarish qurollari va iste’mol buyumlari, turli ijtimoiy birlashmalarning ta’sis hujjatlari, inson tafakkuri va hunarmandchiligi, e’tiqodi va urf-odatlaridan iborat yaxlitlikdir. Madaniyat insonga omon qolish va xavfsizlik, qulaylik va farovonlikning ma’lum standart shartlarini o‘rnatish imkonini beradi.

Kishi va joy nomlarini ifodalovchi otlarning turli tillarda allyuziv ma’noda

qo‘llanilishi tilshunoslar tomonidan atroflicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, bu hodisani izohlashdagi turlicha yondashuvlar, bir-biridan farqlanuvchi ilmiy paradigmalar doirasida talqin qilinishi hamon davom etib kelmoqda. Tilshunoslikda allyuzivlarga oid tadqiqotlar, birinchi navbatda, lingvokulturologik va kognitiv yo‘nalishlarda faol olib borilgan. Bunga asosiy sabab shuki, allyuziv nomlar xalqning madaniy merosi va lisoniy xotirasi bilan chambarchas bog‘liq til hodisasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur birliklar muayyan predmet yoki tushunchaga nom beruvchi onomastik kategoriya sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Allyuzivlikni nomlar bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilgan Y.A.Fleysher ushbu masala yuzasidan o‘z qarashlarini bayon etgan: “Bir tomondan, allyuzivlar kognitiv zahirani shakllantirish xususiyati bilan allyuziv birliklar qatoriga kirsa, ikkinchi tomondan, ular nom sifatida onomastik ko‘lamning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Binobarin, allyuzivlarning onomastik ko‘lamdagi o‘rnini belgilash zaruriy muammolardan biridir”.

Milliy allyuziv nomlar muayyan mentalitetning o‘ziga xosliklarini ifodalovchi, milliy lisoniy ongni o‘zida namoyon etuvchi birliklardir, ular muayyan millatning madaniy kodi sifatida avloddan avlodga o‘tishi, o‘z ahamiyatini yo‘qotganda esa unutilishi mumkin. Ularni tadqiq etish orqali olamning lisoniy manzarasini, undagi lingvomadaniy o‘ziga xosliklarni kuzatish va tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

Pretsedentlar faqat verbal hodisalar doirasini qamrab oladi; tasviriy san’at, musiqa, me’morchilik kabi noverbal hodisalar esa ushbu tadqiqot maydonidan chetda qoladi. Pretsedentlik mezonlari tarkibiga klishe va shtamp, stereotiplar, freym strukturalar, ssenariy hamda reja singari til birliklari ham mos tushadi. Pretsedent nomlar keng jamoatchilikka yaxshi tanish bo‘lgan atoqli otlar bo‘lib, ular badiiy matnda aniq bir shaxsni ifodalash uchun emas, balki madaniy ramz, timsol yoxud muayyan sifat va voqea-hodisalarning umumlashgan ifodasi sifatida qo‘llaniladi.

D.Xudoyberganovaning ta’biri bilan aytganda, allyuziv nom badiiy matndagi yashirin qatlamlarga yo‘l ochuvchi darvoza vazifasini o‘tasa, o‘quvchining egallagan bilimi va madaniy saviyasi xuddi ana shu darvozani ochishga qodir kalit rolini bajaradi.

Pretsedent vaziyat (holat) boshqa pretsedent birliklardan farq qiladi, chunki ularning yordami bilan yozuvchi madaniy kodlar tizimida muhimroq o‘rinni egallaydigan yanada kattaroq stereotipga murojaat qiladi, muallif tomonidan eslatib o‘tilgan pretsedent vaziyat butun voqeani o‘quvchi xotirasida qayta tiklaydi. Pretsedent holatga murojaat qilish matnda uning kognitiv bazasining bir qismi bo‘lgan differensial belgilari (atributlari) orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan: *Pushkinni zavqlanib tingladi*.

Pretsedent iboralar turli xususiyatdagi sitata, aforizm, maqol-matal va shiorlarni matn tarkibiga organik ravishda singdirishdan iborat. Zero, so‘zlovchi va ijodkorning mahorati ko‘p jihatdan mavjud adabiy-lisoniy klishelarni asar mazmuniga muvaffaqiyatli uyg‘unlashtira bilish qobiliyati bilan o‘lchanadi. Folklor tilida asrlar osha sayqallanib, toblanib kelayotgan maqol, matal va masallar

ana shunday klishelarning bebaho namunasi sifatida xizmat qila oladi. Bunga misol tariqasida Pahlavonquli Ravnaqning "*Ne samar hosil bo'lur yuzda degandan sizu biz*" misralarida "*Ming siz-u bizdan bir jiz-u biz yaxshi*" degan xalq maqolidan mohirona bahramand bo'lganini alohida qayd etish joizdir.

1-jadval

Allyuziyalarning manbalar bo'yicha tasnifi

Turi	Manbasi	Ingliz tilida	O'zbek tilida
Tarixiy	Tarixiy shaxs va voqea	Caesar, Cleopatra, Napoleon	Bobur, Navoiy, Amir Temur, Qodiriy
Diniy	Qur'on, Injil, hadis, diniy rivoyat	Joseph, Jesus, Apostle Paul, Witch of Endor	Yusuf, Yaqub, Dovud, Qorun, San'on
Mifologik	Yunon-Rim va Sharq mifologiyasi	Orpheus, Hercules, Apollo, Sisyphus	Alpomish, Xumo, afsonaviy qahramonlar
Adabiy	Badiiy asar qahramonlari	Hamlet, Romeo, Don Quixote	Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Ra'no

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Baho kategoriyasi va allyuziyalarning lingvopoetik talqini"** deb nomlangan. Bobda baho kategoriyasining falsafiy, mantiqiy va lingvistik talqinlari, baholovchilik, emotsionallik, ekspressivlik va obrazlilik kategoriyalarining allyuziya bilan munosabati yoritilgan. Baho kategoriyasi obyektning ijobiy yoki salbiy ahamiyatini belgilovchi aksiologik munosabat sifatida tushuntiriladi.

Allyuziya baholovchi predikat sifatida kontekstga bog'liq holda ish ko'radi. Atoqli otlar o'z semantik tarkibida bevosita baho semasiga ega bo'lmasa-da, ular lisoniy jamoa ongida saqlangan madaniy assotsiatsiyalar orqali ijobiy yoki salbiy baho hosil qiladi. Masalan, *Makiavellian, Quixotic, Rabelaisian* kabi allyuziv birliklar ingliz tilida ma'lum xususiyatlar majmuasini ixcham tarzda bildiradi; o'zbek tilida esa *Majnun, Farhod, Hotam, Qorun, Xizr* kabi nomlar baholovchi va ramziy funksiya bajaradi.

Tadqiqotda allyuziyalar manbasiga ko'ra to'rt guruhga ajratilgan: tarixiy shaxs nomlari asosida shakllangan allyuziyalar; diniy matnlardagi shaxslar va voqealar asosida shakllangan allyuziyalar; mifologik ismlar asosida shakllangan allyuziyalar; badiiy adabiyot qahramonlari nomlari bilan yuzaga kelgan allyuziyalar. Har bir guruh ijobiy yoki salbiy baholovchi ma'no hosil qilishi mumkin.

Allyuziyalarning ekspressiv vositalar tizimidagi o'rni lingvopoetik nuqtayi nazardan talqin qilingan. Allyuziya mumtoz adabiyotdagi talmih san'atiga yaqin bo'lib, mashhur shaxs, tarixiy voqea, diniy syujet yoki adabiy qahramonga ishora qilish orqali fikrni ixcham va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Biroq allyuziyaning qamrovi kengroq: u zamonaviy siyosiy, maishiy, madaniy va ommaviy axborot faktlariga ham murojaat qilishi mumkin. Bobda allyuziv metafora, allyuziv metonimiya, allyuziv epitet va antonomaziya tahlil qilingan. Masalan,

ingliz adabiyotidagi “milk of human kindness” iborasi Shekspirning “Macbeth” tragediyasiga ishora qilib, Stiven King matnida yangi kontekst orqali qahramonning insoniy iliqlikdan uzoqlashganini ko‘rsatadi. O‘zbek matnlarida “Sahrodagi Luvr” kabi metonimik allyuziya Savitskiy muzeyi bilan Luvr o‘rtasidagi madaniy qiyosni yaratadi.

Allyuziyalarning mavjudlik sxemasi quyidagicha:

1) dastlab (tabiiy bosqichda) matn idrok qilinadi va tushuniladi;

2) ikkinchi bosqichda so‘z san’atining boshqa bir turiga o‘tishi amalga oshiriladi va dastlabki matnga nisbatan idrok qilish yoki ikkilamchi refleksiya taklif qilinadi.

Badiiy asardagi Dasti va Skitning suhbati aynan shu xususiyatni namoyon etadi: berilgan har bir savolga javob o‘rniga yana savol qaytariladi. “Is this an Abbott and Costello routine?” degan savol orqali muallif nafaqat qahramonning muloqot uslubini kulgili tarzda tavsiflaydi, balki o‘quvchi ongida mashhur komik duet bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni uyg‘otadi. Shunday qilib, allyuziya matnda ikki vazifani bir vaqtda bajaradi, qahramon obrazini ta’sirchan va ixcham tarzda ochib beradi hamda sahnaga yumoristik ohang baxsh etadi.

Ushbu misolda diktema dialog bilan ifodalangan. Bu qahramonning javoblari unga berilgan savollarning aks-sadosi bo‘lib, suhbatni kulgili va bema’ni qiladi, bu mashhur amerikalik komediya dueti Abbott va Costelloga ishora bilan to‘liq yakunlangan. Allyuziya orqali amalga oshiriladigan matn ichidagi bog‘lanish o‘z tabiatiga ko‘ra assotsiativ kogeziya shakliga ega. I.R.Galperin kogeziyani (inglizcha cohesion – bog‘lanish) kontinuumni, ya’ni matndagi xabarlarning mantiqiy, temporal va fazoviy ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi aloqaning maxsus turi sifatida ta’riflaydi. Assotsiativ kogeziya konseptual ma’lumotlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Allyuziyaning asosiy farqlovchi belgisi – ishora asosida amalga oshiriladigan baholash-tavsiflash va bashorat qilish funksiyalari ushbu stilistik usulni allyuziya sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan boshqa intertekstual kiritmalardan farqlashning asosiy mezoni hisoblanadi. Boshqacha aytganda, allyuziya muallif o‘quvchidan badiiy asar matnida mavjud bo‘lmagan qandaydir xulosa kutgan joyda paydo bo‘ladi. Boshqa intertekstual qo‘shimchalar uchun matnli havola atamasidan foydalanish mumkin.

Til orqali millat o‘zligini anglaydi, bu anglash mentalitet, milliy xarakter, turmush tarzi, an’analari, urf-odat, axloqiy normalar, qadr-qimmat orqali yuzaga chiqadi. Ushbu omillar ko‘p o‘rinlarda milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangan metaforik tarzda voqelanadi, milliy-madaniy birlik tilda har bir insonning fikrlash tarzi, xayoloti, xatti-harakatlari bilan birlashib ketgan bo‘ladi.

Allyuziya stilistik vosita sifatida barcha uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarga ega. Bir tomondan, stilistik usullarning estetik-kognitiv funksiyasi o‘quvchiga mazmunni asta-sekin ochib berishga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, o‘quvchining estetik his-tuyg‘ulariga shakl yordamida ta’sir ko‘rsatadi. Stiven Kingning “Kristin” romanidan olingan matnda adabiy allyuziyaning nozik va ta’sirchan namunasini ko‘rish mumkin. “*Milk of human kindness*” – “*insoniy mehr-shafqat suti*” iborasida Uilyam Shekspirning “Makbet” tragediyasidagi Ledi Makbetning mashhur monologiga ishora qilingan. Shekspir asarida ushbu ibora

insoniy yumshoqlik va rahm-shafqatning timsoli sifatida qo‘llanilgan.

Muallif mazkur adabiy allyuziyani yanada rivojlantirib, unga o‘ziga xos metaforik ma’no beradi: “sut” vaqt o‘tishi bilan “achiydi” degan obraz orqali qahramondagi insoniy iliqlik va mehr-muruvvatning nafaqat yo‘qolib ketgani, balki kislotali va yoqimsiz narsaga aylanganligi ifodalanadi. Shunday qilib, shekspircha allyuziyani yangi metafora bilan uyg‘unlashtirish orqali qahramonning ichki dunyosi uning sovuq qalbligi va insoniylikdan uzoqlashishi nihoyatda ta’sirchan va obrazli tarzda tasvirlanadi.

“Go‘zallik malhami” – Shekspirning “Makbet” pyesasidagi hammaga ma’lum ibora. Stiven Kingning romanida u yangi hayot kasb etadi, muallif “sut” so‘zining to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nosini birinchi o‘ringa qo‘yadi, qahramonning “soxta” mehribonligini yorqin va obrazli tasvirlaydi. Ba’zan muallif o‘z tasavvuriga murojaat qilib, manba tasvirini “rivojlantiradi”, unga dinamika beradi.

Har bir ijodkor badiiy asar yaratar ekan, fikrini iloji boricha aniq ifodalashga harakat qiladi. Baho predikati sifatida ishlatiladigan allyuziya o‘z-o‘zidan baholovchi ma’noni yetkazishning yetarlicha nozik vositasi bo‘lib, katta aniqlik darajasiga imkon beradi. Biroq ko‘pgina mualliflar biron-bir fakt yoki shaxsga shunchaki murojaat qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki ularni turli shakllarga ega bo‘lishi uchun o‘zgartiradi.

Bir allyuziyaning boshqasi orqali transformatsiya etilishi tilda mavjud bo‘lib, bunda birinchi allyuziya baholash obyekti sifatida asos yoki shakl hisoblanadi, boshqasi esa bu shaklga ba’zi o‘zgartirishlar kiritadi. Bu muallifga obrazni yanada aniqroq belgilash va sezilarli darajada ko‘proq baholovchi ma’nolarni yetkazish imkonini beradi: *“Then my father was there, and Leigh’s dad was with him, and their faces were both so tight and grim they looked like Tweedledum and Tweedledee as Franz Kafka might have written them”.*[6]

“Trulyal va Tralyal” – Tomas Nastning karikatura qahramonlari bo‘lib, u ingliz yozuvchisi Lyuis Kerrollning “Alisa ko‘zgu ortida” ertagidagi bir-biridan ajralmas va bir-biriga o‘xshash ikki noto‘g‘ri odamni AQShning ikki asosiy siyosiy partiyasining o‘xshashligi ramzi sifatida tasvirlagan. Obraz, shubhasiz, kulgili, ammo muallif uni XX asr nemis yozuvchisi Frans Kafka timsolida tasavvur qiladi.

2-jadval

Allyuziyalarning matndagi asosiy funksiyalari

Funksiya	Mazmuni	Natijasi
Baholash-tavsiflash	Obyektga yashirin ijobiy yoki salbiy munosabat bildiradi	Qahramon yoki hodisa obrazli baholanadi
Intertekstual bog‘lanish	Manba matn va yangi matn o‘rtasida aloqa hosil qiladi	Matnning ko‘p qatlamliligi kuchayadi
Ekspressivlik	Nutqni ta’sirchan va emotsional qiladi	Estetik ta’sir ortadi
Madaniy kodni faollashtirish	O‘quvchi xotirasidagi milliy yoki universal bilimlarni uyg‘otadi	Lingvomadaniy ma’no ochiladi
Bashorat yoki ishora	Syujetning keyingi rivojiga nozik ishora beradi	Pragmatik implikatsiya yuzaga keladi

[6] King, Stephen. Christine. A Signet Book.– New York, 1983. – P. 491.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tarixiy shaxs va asar qahramonlari asosida vujudga kelgan allyuziyalarning lingvomadaniy xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda tarixiy antroponim va voqealar, universal va milliy pretsedent nomlar badiiy matnda qanday lingvomadaniy ma’no hosil qilishi tahlil qilingan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, hozirgi adabiy matnlarda sof etnik madaniyatdan tashqari universal madaniy qatlamlar ham faol ishtirok etadi.

Badiiy matnda antropoetonimlar allyuziv nom vazifasida matnni shakllantirish, intertekstual tabiatni ta’minlash, kulguli effekt yaratish, ijobiy yoki salbiy bahoni ta’sirli ifodalash, qahramon obrazini chuqurlashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Tarixiy poetonimlar asardagi boshqa nomlarning tanlanishiga ta’sir ko‘rsatadi va badiiy matnning lingvopoetik funksiyasini belgilaydi.

Ingliz adabiy matnlarida *Caesar, Cleopatra, Napoleon, Kubla Khan, Hamlet, Dante, Thomas Aquinas* kabi nomlar turli tarixiy va badiiy assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Samuel Johnsonning “A quibble was to him the fatal Cleopatra...”[7] iborasida Cleopatra nomi Shekspirning so‘z o‘yinlariga berilib ketishini “halokatli joziba” sifatida baholashga xizmat qiladi. George Orwellning “Animal Farm” asaridagi “Napoleon is always right”[8] iborasi esa rahbarlik, manipulyatsiya va ko‘r-ko‘rona itoatkorlikni ifodalovchi siyosiy allyuziya sifatida talqin etiladi.

O‘zbek badiiy matnlarida *Navoiy, Bobur, Qodiriy, Doro, Iskandar, Qosimi Anvar, Bilol, Suhayb* kabi tarixiy va diniy-madaniy nomlar milliy xotira va estetik tafakkurni faollashtiradi. Abdulla Oripov she’riyatida *Navoiy, Pushkin, Samarqand, Rim* kabi milliy va universal pretsedent nomlar bir matn ichida madaniyatlararo maydon hosil qiladi. *Bobur* nomi esa shohlik, hijrat, iztirob va tarixiy taqdirning umumlashgan belgisi sifatida voqelanadi.

Bobning ikkinchi faslida asar qahramonlari asosida vujudga kelgan allyuziyalar tahlil qilingan. *Farhod, Shirin, Majnun, Layli, Ra’no, Anvar, Hamlet, Tweedledum and Tweedledee, Montag, Don Quixote* kabi badiiy qahramonlar matnda tayyor semantik model vazifasini bajaradi. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida *Farhod, Shirin, Majnun, Layli* singari mumtoz ishq qahramonlari Anvar va Ra’no munosabatini talqin qilish uchun intertekstual ko‘prik vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asar qahramonlari asosidagi allyuziyalar qahramonning ichki dunyosi, ijtimoiy mavqeyi, psixologik holati, ironik yoki satirik xususiyatini ochib berishda samarali vosita hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida bunday birliklar madaniy kodlarni ochib berish, matnning estetik qatlamini kuchaytirish va o‘quvchi bilimini faollashtirish funksiyalarini bajaradi.

Jahon adabiyotida allyuziyalar alohida tizim sifatida shakllangan. Ularning ayrimlarini quyida keltirib o‘tishni o‘rinli deb hisoblaymiz: *Prometey* (kishilarni olov bilan ta’minlovchi), *Orfey* (o‘z sevgisi uchun kurashgan, er-xotin o‘rtasidagi muhabbat rishtalarini targ‘ibot qilgan), *Sizif* (shamol ma’budi), *Narsiss* (bashorat qilgani uchun jazolangan), *Sfinks* (qanotli yarim ayol, yarim sher sifatidagi ichidagini hech kimga aytmaydigan sirli jonzot), *Tantal* (ochlik va suvsizlikni yenguvchi ma’bud, azob-uqubatga mahkum etilgan va azob-uqubat ramzi), *Iso masih* (haqni so‘zlab, o‘z dinini targ‘ib etgani uchun chor mix qilingan payg‘ambar),

[7]Johnson Samuel. Preface to Shakespeare. – London: J. and R. Tonson, 1765. – P. 100

[8] Orwell G. Animal Farm: A Fairy Story. – London: Secker and Warburg, 1945. – Ch. 5. – P. 154

Jordano Bruno (“O‘tda yoqmoqlik – inkor etmaslik emas” g‘oyasining targ‘ibotchisi), *Jan Jak Russo* (fransuz faylasufi, yozuvchisi va bastakori. Odamlar orasida tengsizlik, bolalarning mustaqil fikrlash kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan), *Napoleon* (Fransuz inqilobi urushlarida mashhurlikka erishgan fransuz qo‘mondoni, siyosiy yetakchi), *Gitler* (milliy-sotsialistik nemis ishchilar partiyasining yetakchisi (fyurer), reyxskansler, Ikkinchi jahon urushi davrida bosh qo‘mondon) va boshq.

Tarixiy poetonimlar nafaqat asardagi boshqa o‘ylab topilgan poetonimlarning mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi, balki ularning badiiy matndagi lingvopoetik funksiyasini belgilashda ham faol rol o‘ynaydi. Shubhasiz, onomapoetikaning bosh muammolaridan biri – badiiy asar doirasida o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan odatiy, tarixiy va to‘qima poetonimlarning o‘zaro nisbati masalasidir.

Antropoetonimlar tarkibiga kiruvchi ism, laqab, familiya, otasining ismi va taxallus singari birliklar, qoida tariqasida, muallifning estetik dunyoqarashi va badiiy maqsadi bilan uyg‘un tarzda namoyon bo‘ladi. Badiiy matnda antropoetonimlar quyidagi lingvopoetik vazifalarni ado etadi:

a) allyuziv nom vazifasida matnni shakllantirish;

b) matnning intertekstual tabiatini ta’minlash;

g) ijobiy yoki salbiy bahoni ta’sirli ifodalash.

O‘zbek madaniyatida “O‘tgan kunlar” birikmasi orqali ham qatag‘on davriga, ham “O‘tkan kunlar” romaniga, *Qodiriy* pretsedent nomi orqali esa, uning fojiali o‘limi haqidagi faktga ishora qilinadi. Qodiriy va uning romani haqidagi ma’lumotlarning mashhurligi u xususda yozilgan she’riy matn mazmunini tushunilishida katta rol o‘ynaydi.

Jonsonning fikricha, Shekspir ko‘p hollarda so‘z o‘yiniga shu qadar berilib ketadiki, dramatik holatning jiddiyligi, obrazlar izchilligi yoki badiiy mantiq ham ushbu uslubiy vosita yo‘lida qurbon qilinadi. Shu sababli “quibble” Jonson tahlilida Shekspir uchun “fatal Cleopatra” – halokatli Kleopatra obraziga aylanadi. Shoirning she’riy parchasida *Kleopatra* Mark Antoniy uchun qanday maftunkor, ammo halokatga olib boruvchi kuch bo‘lsa, so‘z o‘yini ham Shekspir uchun shunday ijodiy vasvasa sifatida tasvirlanadi. Allyuziyaning ta’sir kuchi shundaki, Jonson birgina “Cleopatra” nomi bilan butun bir tarixiy-adabiy kontekstni faollashtiradi. O‘quvchi *Kleopatra, Mark Antoniy, muhabbat, hokimiyatdan voz kechish* va *fojiali yakun* haqidagi madaniy bilimlarga ega bo‘lsa, jumlaning chuqur ma’nosi ochiladi. “Kleopatra” she’rda pretsident nom sifatida xizmat qiladi va matnga qo‘shimcha semantik qatlam olib kiradi.

Abdulla Oripovning “*Rim yo‘q, Samarqand yo‘q, dahshat alhazar!*”[9] she’rida ham milliy pretsedent nom, ham universal pretsedent nomlar ishtirok etgan. Milliy pretsedent birlikka *Navoiy, Samarqand* kabi pretsedent nomlar kirsa, universal pretsedent nomlarga esa *Pushkin, Rim* so‘zlari kiradi.

“When Caesar lived he durst not thus have moved me.”[10] She’rda allyuziya sifatida keltirilgan *Yuliy Sezar* (mil. av. 102-44) Rim diktatori, sarkarda, yozuvchi

[9]Abdulla Oripov. She’rlar. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010. – B. 214

[10] Shakespeare W. Julius Caesar. Folger Shakespeare Library Edition. Washington, DC: Folger Shakespeare Library. Act IV, Scene 3.2022.– P.153

bo‘lib, siyosiy faoliyatini demokratik guruh tarafdori sifatida boshlagan, harbiy tribun, edil, pretor lavozimlarida faoliyat yuritgan. Butun Alp orti Galliyasini Rimga bo‘ysundirib, uni uzoq yillar boshqargan. O‘z qo‘lida respublikaning eng muhim va ahamiyatli lavozimlarini jamlab, amalda rasmiy monarx vazifasini bajargan. Keyinchalik respublikachilar fitnasi natijasida qo‘lga olinib o‘ldirilgan. Undan “Galliya urushi haqida xotiralar” va “Grajdanlar urushi haqida xotiralar” asarlari hozirgi davrga qadar yetib kelgan. Uning eng muhim ishlaridan biri u mavjud kalendarni isloh etgan. Mazkur she’riy parchada *Yuliy Sezar* ismi allyuziya sifatida qo‘llangan bo‘lib, u cheksiz hokimiyat sohibi, diktator ko‘chma ma’nosida istifoda etilgan.

Yuliy Sezarning allyuziya sifatida qo‘llanilishini Shekspirning “Hamlet” asarida ham uchratamiz:

Imperious Caesar, dead and turned to clay,
O, that that earth which kept the world.[11]

Napoleon – tarixiy shaxs, Fransiya tarixidagi eng mashhur harbiy va siyosiy arboblardan biri.

Jorj Orwelning “Animal Farm” asarida *Napoleon* allyuziv nom sifatida qo‘llangan. Asardagi “Napoleon doim haq” iborasida Napoleonnning diktatorligi ta’kidlangan. Rahbarning o‘z izdoshlari miyasini yuvish maqsadida tashviqot, qo‘rquv va manipulyatsiyadan foydalanishi allyuziya qilingan. Bu ko‘r-ko‘rona itoatkorlikni, erkin fikrni bostirishni va hokimiyat tepasidagilar nima desa, shuni qabul qiladigan jamiyatni anglatadi.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida bir vaqtning o‘zida bir nechta pretsedent nomlar allyuziv vosita sifatida mohirona qo‘llanilgan.

Agar Farhodning Shirin, bo‘lsa Majnunlarning Laylosi,
Nasib o‘lmish menga gulshan aro gullarning “Ra’no”si.[12]

Anvar tilidan aytilgan baytda *Farhod, Shirin, Majnun* va *Layli* singari o‘zbek va Sharq mumtoz adabiyotining eng mashhur oshiqlari tilga olingan. Mazkur allyuziv nomlarning har biri o‘ziga xos ma’no yuki va ramziy qiymatga ega: *Farhod* va *Shirin* beqiyos sadoqat va fidoiylik ifodasi bo‘lsa, *Majnun* va *Layli* esa, o‘tli va jonso‘z muhabbatning timsoli sifatida o‘zbek lingvomadaniyatida etalon maqomini egallagan. Anvar ana shu ikki buyuk ishqiy juftlikni o‘zi va Ra’no munosabatiga qiyoslash orqali sevgisining chuqurligi va beqiyosligini ta’sirchan tarzda ifodalaydi.

Ingliz adabiyotidagi *Dante* va *Hamlet* allyuziyalarini alohida tahlilga tortdik. T.S. Eliotning “The Love Song of J. Alfred Prufrock” she’rida adabiy allyuziyalar qahramonning ichki kechinmalarini ochib berishga xizmat qilgan. She’r Dante Aligerining “Inferno” (“Do‘zax”) asaridan olingan epigraf bilan boshlanadi. Ushbu epigraf Prufrokning o‘z qo‘rquvlari, ikkilanishlari va muvaffaqiyatsizliklarini ichki monolog shaklida bayon etishini anglatadi. Dantega qilingan bu ishora qahramonning ruhiy tanholigi va ichki iztiroblarini yanada chuqurroq yoritadi. She’rning eng muhim allyuziyalaridan biri *Hamlet* obraziga bog‘liq:

[11] Shakespeare William. *Hamlet*, Folger Shakespeare Library Edition. Washington DC: 2022. – P.213
[12] Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 123

“No! I am not Prince Hamlet, nor was meant to be;
To swell a progress, start a scene or two,
Advise the prince; no doubt, an easy tool”,[13]

Rey Bredberining “*Fahrenheit* 451” asarida adabiy allyuziyalar qahramonning ichki o‘zgarishi va jamiyatga qarshi kurashini ochib berishga xizmat qiladi. *Guy Montag* – kitobni yoqib yuboruvchi kishi sifatida asta-sekin kitoblarning haqiqiy qiymatini anglab yetadigan qahramon hisoblanadi. Asardagi muhim allyuziyalar Injil va mumtoz adabiyotga bog‘liq bo‘lib, *Montag* bu matnlarni yodlash orqali o‘z ichki o‘zgarishini to‘liq namoyon etadi. Ushbu allyuziyalar qahramonning ma’naviy uyg‘onishini va ozod fikrlashga intilishini yanada chuqurroq ochib beradi.

Montag o‘z qarashlarini metroda odamlarga yod oldirishga urinadi, biroq atrofdagi shovqin va befarqlik uni to‘sadi. Mazkur sahna tasodifiy emas, u Montagning bilimni saqlab qolish istagini hamda jamiyatning ma’naviy bo‘shlig‘idan chuqur iztirobini ramziy tarzda ifodalaydi. Injilga qilingan bu ishora qahramonning ichki uyg‘onishini, yolg‘izligini va kitoblar orqali insoniyatni asrab qolish yo‘lidagi kurashini yanada ta’sirchan tarzda yoritib beradi.

J.D. Selinjerning “The Catcher in the Rye” asarida ham allyuziyalar uchraydi, jumladan, eng muhim allyuziyalaridan biri Robert Burnsning she’riga bilan bog‘liq: *“If a body meet a body coming through the rye”.*[14]

O‘zbek madaniyatida faol qo‘llanuvchi *Majnun* − ayrim manbalarning ma’lumotiga ko‘ra Bani Omir qabilasidan chiqqan asl ismi Qays ibn Murod bo‘lgan yigit. Qays, Layli ismli qabiladoshini sevadi va o‘z sevgisi va hijron alamlari haqida mungli she’rlar yozadi. Bu ma’lumotlar ibn Qutaybaning “Kitob ush-she’r va shuaro”, Abul Faroj-Isfahoniyning “Kitob ul-afg‘oni” asarlarida keltirilgan. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida Qays ibn al Mulavvo ismli arab yigitining Layli ismli qiz bilan ishqiy munosabatlari, bolaligidan maktabdosh do‘sti Laylini sevib qolishi, uning ishqida ko‘chalarga chiqib ketishi, uydagilari kechalari uni sahrolardan Laylining uyi oldidan topib kelishi, shu sababli ham odamlar Qaysga *Majnun* (devona) deb nom qo‘yishgani, o‘g‘lining Layliga uylanishiga qarshi chiqqan otasining tazyiqlari va ayriliq azobi tufayli aqldan ozib devona holiga tushishi bayon qilingan.

“Dema mehnat tog‘ining Farhodi sargardonimen,
Toza yuz ming dog‘ ila ul qullarning qoplonimen”.[15]

Farhod − sharq xalqlari og‘zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz. Qadimgi mifologiya va folklorda tog‘ qahramoni sifatida tasvirlanadi. Fors-tojik shoiri Og‘ochiy she’rida Farhod nomi X-XI asrlarda tilga olingan. Ammo boshqa asarlarda bosh qahramon sifatida tilga olinmagan. Alisher Navoiy o‘zining “Farhod va Shirin” dostonida Farhodni komil inson darajasiga olib chiqdi.

[13] Eliot T. S. The Love Song of J. Alfred Prufrock // Prufrock and Other Observations. – London,1917. – P. 119
[14] Salinger J. D. The Catcher in the Rye. – Boston: Little, Brown and Company, 1951. – P.65
[15] Navoiy A. G‘aroyib us-sig‘ar / Favoyid ul-kibar (Xazoyin ul-maoniy). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1989. – B. 234

3-jadval

Tarixiy va badiiy qahramonlarga asoslangan allyuziyalar

Allyuziv birlik	Madaniy manba	Lingvokulturologik ma’no
Cleopatra	Rim-Misr tarixi, Shakespeare konteksti	Halokatli joziba, ehtiros va siyosiy kuch
Napoleon	Fransiya tarixi, Orwell konteksti	Hokimiyat, diktatura, tashviqot va itoat
Navoiy	O‘zbek mumtoz adabiyoti	Donishmandlik, badiiy meros, milliy xotira
Bobur	Tarixiy shaxs, “Boburnoma” va she’riyat	Hijrat, taqdir, shohlik va iztirob
Farhod va Shirin	Sharq mumtoz dostonlari	Fidoiy muhabbat, sadoqat va komillik
Layli va Majnun	Sharq ishqiy dostonlari	O‘tli muhabbat, hijron va ruhiy iztirob

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi *“***Mifologik va diniy dunyoqarash asosida shakllangan allyuziyalarining lingvokulturologik xususiyatlari***”* deb nomlangan va unda mifologik obrazlarning badiiy tafakkurdagi o‘rni, ularning metaforik, ramziy va istioraviy mohiyati, shuningdek, diniy markerlangan allyuziyalarning madaniy-semantik salohiyati tadqiq etilgan.

Mifologik allyuziyalar voqelikning murakkab jihatlarini obrazli shaklda ifodalashga xizmat qiladi. *Kassandra, Orfey, Mars, Gerakl, Apollon, Minotavr, Sizif, Acheron, Ceres, Laocoon* kabi yunon-rim mifologiyasiga oid nomlar ingliz badiiy matnida universal madaniy kod sifatida ishlaydi. Masalan, “Firmer than Orpheus” iborasi qahramon qat’iyatini *Orfey* haqidagi mif bilan qiyoslaydi; “Laocoon” esa ichki kurash, azob va tutqunlik holatini ifodalovchi kuchli obrazga aylanadi.

Mifologik allyuziyalar o‘zbek adabiy-madaniy maydonida ham universal va milliy qatlamlar bilan tutash holda qo‘llanadi. Bunda qadimiy mif, xalq og‘zaki ijodi, mumtoz dostonlar va Sharq madaniyati namunalari asosida shakllangan obrazlar o‘quvchi ongida tayyor semantik maydonni uyg‘otadi. Mifologik nomlar baholash, ramzlashtirish, qahramon xarakterini keskinlashtirish va matnga falsafiy qatlam berish vazifalarini bajaradi.

Diniy mazmundagi allyuziyalar alohida ilmiy ahamiyatga ega. Din inson dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va madaniy xotirasini shakllantiruvchi kuchli omil bo‘lib, til orqali estetik va semantik ifodasini topadi. Ingliz va o‘zbek adabiyotida Bibliya, Qur’on, hadis va diniy rivoyatlar bilan bog‘liq *Iso, Yusuf, Yaqub, Sulaymon, Dovud, Nuh, Jabroil, Anas, Qorun, San’on* kabi allyuziyalar uchraydi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida diniy antroponimlar ko‘pincha ma’naviy komillik, sabr, go‘zallik, hikmat, saxovat, zulm, xasislik yoki tavba kabi ma’nolarni ifodalaydi. Navoiy asarlarida *Yusuf, Yaqub, Dovud, Imron, Jabroil, Anas, Muqbil, Mudbir, Qorun, San’on* kabi nomlar diniy-madaniy kodning muhim birliklari sifatida voqelanadi. Ingliz adabiyotida esa *Biblical allusions* ko‘pincha axloqiy

tanlov, gunoh, najot, ruhiy uyg‘onish va ekzistensial iztirobni ifodalashga xizmat qiladi.

Mavzuni o‘rganish natijalari shuni tasdiqlaydiki, mifologik va diniy allyuziyalar ingliz va o‘zbek matnlarida shunchaki bezak emas, balki konseptual hamda madaniy ma’no yaratish mexanizmi hisoblanadi. Ular o‘quvchining madaniy xotirasini faollashtiradi, matnning ko‘p qatlamliligini ta’minlaydi va muallifning baholovchi munosabatini yashirin tarzda ifodalaydi.

Til xalqning o‘ziga xosligi va milliy madaniyatini o‘zida to‘liq aks ettiradi. Tilda muayyan millatning madaniy qadriyatlari o‘z ifodasini topadi, ularni o‘sha xalqqa yoki boshqa xalq vakillariga yetkazib berishda til eng muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mifologik obrazlar muayyan voqea-hodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo‘lib, voqelikning mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o‘ziga ko‘chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi. Badiiy tafakkur shakllangach, mifologik obrazlar adabiyotga ko‘chgan.

Mifologik afsonalar asosida hosil bo‘lgan allyuziyalar ingliz adabiyotida ko‘p uchraydi. Bunga misol sifatida *Kassandra* ismini aytish mumkin. Adabiyotdagi *Kassandra* nomi yunon mifologiyasidan olingan bo‘lib, u Troya shohi Priamning qizi bo‘lgan. Afsonada keltirilishicha, uning Troya shahrining halokatga uchrashi hamda tanazzulini bashorat qilgani qayd etiladi. Hozirgi kunda bu ism badiiy adabiyot va og‘zaki nutqda bashoratiga kishilar ishonmagan sohibkaromat kishi, bashoratchi ko‘chma ma’nosida qo‘llaniladi. Allyuziyalar badiiy matnda turli vazifalarni bajarish maqsadida qo‘llanadi. Ular orasida eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1) muallif g‘oyasini ta’sirchan, ixcham va aniq tarzda yetkazish;
2) badiiylikni kuchaytirish va asarning estetik qiymatini oshirish;
3) matnda intertekstual bog‘liqlikni ta’minlash;
4) ijobiy yoki salbiy munosabatni ekspressiv ifoda etish;

Yuqoridagilarga ko‘ra, allyuziyaning quyidagi ta’rifini taklif qilish mumkin: Allyuziya – bu intertekstning ma’lum bir elementiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita havola bo‘lib, u baholovchi munosabatga yoki allyuziyaviy so‘z adresatining yashirin xususiyatiga ishora qilishdir.

Zamonaviy adabiyotda allyuziya, odatda, taniqli shaxs, muayyan faktga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish bilan ifodalanadi. Allyuziyalarni boshqa intertekstuallik shakllaridan ajratib turadigan asosiy xususiyati muallif tomonidan ifodalangan birlikning yashirin ma’nosi bo‘lib, uni o‘quvchi tushunishi kerak. Aksariyat hollarda, so‘zning bu ma’nosi subyektning biror narsaga baho berish munosabatini, asarda tasvirlangan voqealarning kelajakdagi rivojlanishi haqida muallifning bashoratli ishorasini ifodalaydi.

Madaniy kod – bu madaniyat ustuvorliklari, qadriyatlar, me’yorlar va ko‘rsatmalar yig‘indisi bo‘lib, ularni anglash va tushunish uchun asosiy tushuncha vazifasini bajaradi. Lingvomadaniy kod esa, aynan shu madaniy kodning verballashgan ko‘rinishi hisoblanadi va u orqali madaniyat me’yorlari, stereotiplari va qadriyatlarini anglash mumkin.

Madaniy kod turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: turmush realiyalari, flora va fauna vakillari, predmetlar, rang-tus, makon va vaqt elementlari, biomorf va

teomorf elementlar va boshqalar. Inson ongida ular bilimlar, tasavvurlar va assotsiatsiyalar ko‘rinishida aks etadi. Adabiyotshunoslikda madaniy kodlar somatik, makoniy, temporal, predmetli, biomorf, ma’naviy, mifologik, teomorf va rang-tus kabi turlarga bo‘linadi. Masalan, G.V.Tokarev biomorf kod, fetish (predmetli) kod, animik va aksional kodlarni ajratib ko‘rsatgan.

Ko‘p hollarda madaniy kodlar lingvomadaniy kodlar bilan birlashib qo‘llaniladi, chunki til egalari o‘z fikr va tasavvurlarini ifodalashda obrazlar orqali milliy va madaniy stereotiplarga ishora qiladilar. Shu tarzda axborot obrazli asos madaniyat bilan bog‘liq konnotatsiyalarda mujassamlanadi. Madaniyatning tilga ta’siri lisoniy shaxs orqali amalga oshadi, shuningdek, tilning madaniyatga ta’siri ham lisoniy shaxs orqali amalga oshadi.

“I gave her bowed head one last stare, then I was walking. Firmer than Orpheus, as firm as Alison herself, that other day of parting. not once looking back”.[16]Ingliz yozuvchisi Djon Robert Faulzning “Kolleksioner” asaridan olingan mazkur parchada bosh qahramon Nikolas Urfeni qat’iyatli ekanligi sabab *Orfey*ga taqqoslashga harakat qiladi. O‘quvchi qahramonning ichki holati, o‘z qarorining to‘g‘riligiga ishonchi haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Afsonada Orfeyning qat’iyatliligi ta’kidlanadi, u o‘z qaylig‘i Evridikani shunchalik yaxshi ko‘rganki, ungacha hech bir tirik odam qilmagan ishni amalga oshirgan, uni qaytarib olish uchun o‘liklar saltanatiga tushgan. U o‘z yo‘lida to‘siqlarga duch keladi, o‘liklar ruhini narigi qirg‘oqqa olib o‘tayotgan qayiqchi Xaron uni olib o‘tishga rozi bo‘lmaydi, yer osti iti Kerber dahshatga soladi, uning tanasida jun o‘rniga yuzlab ilonlar paydo bo‘ladi, eng kattasi dumida zahar sochadi, ammo o‘zining ajoyib musiqiy iste’dodi tufayli Orfey hammasini yengib o‘tadi. Biroq u Evridikaning soyasini o‘liklar saltanatidan olib chiqa olmaydi, chunki u Aidning orqaga qaramaslik shartini buzgan edi. Asar matnida ushbu afsonaviy voqealar bilan bog‘liq ko‘plab ishoralar uchraydi. Asar bosh qahramonlari Nikolas Urfe va Alison Kelli ham bir-birlarini ehtiros bilan sevishadi, Nikolas Elisonga tanlash imkonini beradi.

Shekspir o‘zining mashhur tragediyasi “Gamlet” asarida allyuziyalarni aniq ifodalaydi. She’riy matnda qahramonning ongsizligi, otasiga bo‘lgan sevgi va hozirgi voqelikka nisbatan g‘azabi aks ettirilgan. Unda allyuziyalar orqali qahramonning ichki dunyosi va ruhiy holati, shuningdek, otasi va amakisi bilan bog‘liq tarixiy-diniy qiyoslar tasvirlangan. Asar qahramonining “Gerakl men” deb o‘zini ta’riflashi – antonomazik uslubda qiyosiy allyuziya bo‘lib, uning o‘zini otasi bilan solishtirishi va ruhiy holatini yorqin ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu tarzda, Shekspir allyuziyalarni qahramonning ichki psixologik his-tuyg‘ularini aks ettirishda va kitobxonga tez va ta’sirchan ma’no yetkazishda samarali qo‘llaydi.

Ayonki, *Gerakl* yunon afsonalaridagi qahramon. Zevsning o‘g‘li Gerakl afsonalarga ko‘ra, beqiyos kuchga ega bo‘lgan. U mislsiz o‘n ikkita jasorat ko‘rsatgan. Ularning ayrimlari quyidagilar: nemey sherini va ko‘p boshli lerney ajdahosini o‘ldirgan; erimanf to‘ng‘izini tirik tutgan; stimfol jodu qushlarini qirib tashlagan; amazonkalar malikasi Ippolitaning kamarini olgan; Prometeyni ozod qilgan; podshoh Diomedni yengib, yiqitgan va boshqalar. Yunonistonning ko‘pgina

[16] John Fowles. The Magus. – London: Jonathan Cape, 1965. – P. 605.

joylarida, keyinchalik Italiyada Geraklga e'tiqod qilingan. Gerakl haqidagi afsonalarda insonning tabiat dahshatli kuchlariga qarshi kurashi aks etgan. Shekspir asarida Gamlet o'zini Geraklga o'xshatgan.

"I will show you fear in a handful of dust". [17] Mazkur misolda yozuvchi *Minotavr* va boshqa afsonalarga ishora qiladi. *Labirint*, bu o'rinda zamonaviy insonning sarosima va umidsizlikka tushib qolganini ko'rsatadi. Afsona urushdan keyingi parchalangan ruhiyat uchun metafora vazifasini bajaradi.

Albert Kamyuning "The Myth of Sisyphus" asarida ham allyuziv nomlar ko'p qo'llangan: "*The struggle itself toward the heights is enough to fill a man's heart. One must imagine Sisyphus happy*."[18] Yozuvchi ushbu misol orqali bir umrga tosh dumalatishga mahkum bo'lgan Sizifni ekzistensial metaforaga aylantiradi. "*They seem, even though the day is windless, to be writhing, convulsing, each his own Laocoon, caught and frozen in some fanatically private struggle for existence.*"[19] Ko'rinadiki, kun shamolsiz bo'lsa-da, ular har tomonga burilib, keskin harakatlanmoqda. Mifologik qahramon Leyakoon tiriklik uchun kurashda muzlab qolgan fanatik holatda tasvirlanadi.

"Laocoon" yunon afsonalaridagi Troya qahramoni Leyakoonga ishora qiladi. Laokoon – yunon mifologiyasida Troyadagi Apollonning kohini. Troya urushi paytida u troyaliklarni shaharga yog'ochdan yasalgan Troya otini olib kirishdan ogohlantiradi, unda dushman askarlari yashiringan. Troyaliklar Laokoonning ogohlantirishlariga quloq solmasliklari uchun ma'buda Afina uning o'g'illari va o'zini bo'g'ib o'ldirish uchun ikkita ilon yuboradi. Ilonlar dengizdan chiqib, ulkan halqalar shaklida suvda harakatlanadi. Quruqlikka chiqqach, ular kohin o'g'illariga tashlanishadi. Ota yigitlarga yordamga tashlanganida, uni ham tutib olib, qudratli tanasini sirtmoqlar bilan o'rab olishadi. Leyakoonning qahramonligi, qiynoqqa tushishi yoki qiyin vaziyatda bo'lishi yozuvchi tomonidan ramziy ma'noda qo'llanilgan.

Din inson hayotida eng ahamiyatli va qadriyat nuqtayi nazaridan muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Uning o'ziga xos o'rni shundaki, u inson ongida atrof-muhitda yuz berayotgan hodisalarni aks ettirish va ularga nisbatan muayyan munosabat shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Din madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning turli sohalariga – me'morchilik, san'at, ijod, musiqa, ilm-fan, adabiyot hamda axloqiy me'yorlarga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Boshqacha ifoda etganda, insonning kundalik va hayotiy faoliyatiga doimo ikki asosiy omil – din va madaniyat ta'sir ko'rsatib keladi. Chunki aynan shu ikki jihat inson uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi asosiy vosita esa, tildir. Bugungi kunda til, din va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabatlar, shuningdek, ushbu tizimni shakllantiruvchi omillarni tadqiq etish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tilni hamda unda so'zlovchi insonlarning dunyoqarashini o'rganish jarayonida din va madaniyat omillarini inobatga olmaslik tadqiqotning to'liq emasligiga sabab bo'ladi. Til va din o'rtasidagi munosabatlarni yoritishda til falsafasi sohasidagi yirik

[17] Eliot T. S. The Waste Land. Section IV, "Death by Water." New York. 1922. – P. 166.
[18] Camus, Albert. The Myth of Sisyphus. "The Absurd Man" Conclusion section. Great Britain. 1955. – P. 234
[19] 288 Fowles, J. The Collector. – London: Vintage Books, 2004. – P. 178.

olimlar A.F.Losev, S.N.Bulgakov va V.I.Postovalovaning hissasi juda kattadir. Ayniqsa, V.I.Postovalova til birliklarini tahlil qilishda teoantropokosmik yondashuvni, ya'ni Xudo, inson va koinot birligiga asoslangan usulni qo'llashni ilgari surgan.

"I like to think how nice it's gonna be, maybe, in California. Never cold. An' fruit ever'place, an' people just bein' in the nicest places, little white houses in among the orange trees".[20]

Bu nutq tashqi ko'rinishida eng sodda orzu sifatida qabul qilinsa-da, semantik chuqurligida "Injil" kitobining "sut va asal oqib turgan yer" arxetipini takror eslatib turadi. Asardagi "Fruit ever place" iborasi Bibliyadagi "land flowing with milk and honey"[21] so'zlarining og'zaki, dialektga moslashtirilgan ekvivalentidir. J.Steynbek bu yerda to'g'ridan to'g'ri iqtibosga emas, transformativ allyuziya strategiyasiga murojaat qiladi: muqaddas matnning leksikasi olib tashlanadi, ammo uning tasviriy-arxetipik tuzilishi savodsiz ayolning og'zaki nutqida qayta tug'iladi. Sovuq bo'lmas yer, hamma yerda meva, oq uyli bog'lar kabilarning hammasi Injiliy mo'l-ko'llik tasvirining kundalik dialektga ko'chirilgan shaklidir. J.Steinbeckning intertekstualligi shunchaki badiiy bezak emas: u Amerika tarixining diniy o'z-o'zini anglashini ichidan parchalovchi va shu parchalanish o'rnida yangi axloqiy maydon quruvchi adabiy mexanizmdir.

Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" asarida do'stlik timsoli hisoblangan Anas diniy antroponim sifatida voqelangan:

"Yor isidur kom keltursin sabo yoxud shamol,
Do'st taqririg'a roviy xoh Buzor, xoh Anas".[22]

Anas ibn Molik − Muhammad payg'ambarning sahobalari va xizmatkori bo'lib, 612-yilda Yasribda tug'ilgan. Anas ibn Molik payg'ambarimiz Madinaga hijrat qilgan vaqtida 10 yoshda edi. Anasning onasi Ummu Sulaym o'g'lini payg'ambar huzuriga olib kelib, Anasni xizmatkor qilib taklif qiladi. Anas Muhammad payg'ambarga xizmat qilib, uning barcha buyruqlarini bajaradi va din asoslarini o'rganadi. Sir saqlash kerak bo'lgan narsalarni onasiga ham aytmaydi. Anas ibn Molik nihoyatda odobli, yumshoq tabiat inson, ajoyib suhbatdosh do'st ham edi. Anas Rasullulloh (s.a.v) ni juda yaxshi ko'rar, buni hamma joyda ochiq aytar edi.

"Badoye ul-bidoya" asarida diniy Aziz antroponimi orqali Misr vaziriga nisbatan allyuziya ishlatilgani kuzatiladi:

"Ko'nglagingdinkim topar jon dam-badam Yusuf isi,
Ey Azizim, men ham ul ko'nglak aro bir tormen".[23]

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Dovud (a.s) miloddan avvalgi X asrda Isroil va Ludeyani birlashtirib yagona yahudiy davlatini tuzgan. Alloh Dovud (a.s) ga podshohlik, payg'ambarlik va o'zi xohlagan narsalardan saboq berdi. Dovud (a.s) temirchilikning asoschisi hisoblanadi. U qo'l mehnati bilan temirdan buyumlar yasab, ularni sotib kun kechirgan. Bundan tashqari Dovud (a.s) ni nihoyatda xushovoz bo'lganligi, qushlar unga qo'shilib qo'shiq kuylaganligi ham ma'lum.

Navoiy asarlarida qo'llangan *Imron* − Dovud alayhissalom naslidan. Islomdagi

[20] Steinbeck J. The Grapes of Wrath. – New York: Viking Press, 1939. – P. 10.
[21] John Steinbeck. The Grapes of Wrath. – New York: Viking Press, 1939. – P. 11
[22]Alisher Navoiy, Navodir ush-shabob, MAT nashriyoti, Toshkent, 2011, – B. 196
[23] Alisher Navoiy. Badoye ul-bidoya. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 1–tom. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 376.

eng soliha ayollardan biri Bibi Maryamning otasi. Muso alayhissalomning bobosi. “Qur’oni karim”dagi “Oli Imron” surasida Imron va uning oilasi haqidagi qissa zikr etilgan.

Iso Masih – “Qur’on”da tilga olingan payg‘ambarlardan biri. Islomda Muhammad (s.a.v) dan oldingi payg‘ambar sifatida alohida e’zozlanadi. U “Qur’ond”a „al-Masih“ („xudo yarlaqagan“), Ibn Maryam („Maryamning o‘g‘li“), Abdulloh („Allohning quli“), Rasulullo h („Allohning elchisi“), Allohning muqarrabi (yaqini), “Haqni so‘zlovchi”, deb ta’riflanadi. Isoga “Injil” nozil qilingan. “Qur’on”ga ko‘ra, Iso − Allohning o‘gli emas, Xudo ham emas. Iso − Allohning bandasi va bokira qiz Maryamdan mo‘jiza bilan tug‘ilgan. Alloh unga “Bani Isroil” qavmini hidoyatga boshlash uchun payg‘ambarlik darajasini iroda etadi. Iso odamlarni o‘z ta’limotiga ergashishlariga da’vat qiladi. Yahudiylarni noto‘g‘ri yo‘llardan qaytarib, ularga halol va haromni tushuntira boshlaydi. O‘zidan keyin Ahmad (ya’ni Muhammad) nomida bir payg‘ambar bo‘lishini bashorat qildi.

“Qullug‘ing dog‘idin o‘lsam, istamon ozodlik,
Kim, bu tandir nishoni Mudbiru Muqbil aro”.[24]

Muqbil – rozilik, shukronalik timsoli. U doim shukrona qiladi mazlumlarga shafqat bilan qaraydi, to‘g‘rilikdan sira boshqa yo‘lga yurmaydi. Shu sababli ham Muqbilga iqbol va saodat kulib boqdi. Mudbir esa Muqbilning tamoman aksi bo‘lib, u hamma narsadan norozi, hamisha noshukur bo‘ladi. Ulardan biri yo‘lsiz, ikkinchisi esa tariqat bilimdoni edi. Muqbil iloh ahllari haqida, dindagi komil va ogoh kishilar to‘g‘risida so‘z aytsa, Mudbir esa butni vasf etuvchi kofirlarga o‘xshab faqat nuqson ahli haqida so‘z yuritardi. Unisi dardu o‘rtanishlardan gapirsa, bunisi yaltiroq tashqi ko‘rinishlar haqida valdirar edi.

“Nedur uchmoq joh ila, oxir falak Namurdning,
Osmon-u taxt-u tojin hamki Qorun qildilo”.[25]

Qorun – “Qur’on”da yozilishicha, Muso alayhissalom qavmidan bo‘lgan, nihoyatda boy-badavlat kishi edi. Uning mol mulki nihoyatda ko‘pligidan ularning kalitlarini ko‘tarib yurishga ko‘pchilikning kuchi yetmasdi. U davlatini hammaga ko‘z-ko‘z qilar, qimmatbaho kiyimlar kiyar edi. Bir kuni Qorun noshukurlik qilib, Allohga isyon qildi. “Bularni, ya’ni boyliklarni o‘z o‘quvim va iqtidorim orqali qo‘lga kiritganman” degan da’vo qildi. Oqibatda Qorunning o‘zini ham to‘plagan boyliklarini ham yer yutdi.

“Ko‘nglum o‘tidin ne tong har topsa ruxsoring furug‘,
Shox tarso mushaf o‘rtar shayx San’on o‘tig‘a”.[26]

San’on ilk bor Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida qo‘llangan. Undan so‘ng u haqida Alisher Navoiy asarlarida ma’lumotlar uchraydi. San’on ilm-u irfonda yagona zot edi, makkaning o‘zida ellik yil shayxlik qilgan, to‘rt yuzdan ortiq muridi bo‘lgan. Ellik marta haj va umra safariga borgan, barcha kishilar shayxni o‘zidan baland hisoblar edilar. Bir kuni u tushida Rumda sayr qilib, bir but sanamga sajda qilayotgan emish. Tushini tabirini bilish uchun to‘rt yuz muridi bilan Rumga yo‘l olibdi va bir necha oyda yetib boribdi. San’on tarso qizni ko‘rib qoladi,

[24] Alisher Navoiy. Badoye ul-bidoya. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 379
[25] Alisher Navoiy. Badoye ul-bidoya. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 400
[26] Alisher Navoiy, G‘aroyib us-sigar Xazoyin ul-maoniy, Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti: 1988. – B. 423.

bu sanamni Makkada tushida ko‘rgan edi. Shayx bu qizni sevib qolgan, unga boshqalarning gap-so‘z ta’sir qilmas edi. San’on bu qizni sevganidan hamma narsaga tayyor, qalin puli evaziga tarso qizning cho‘chqalarini bir yil boqib berishga ham tayyor edi. Shayx cho‘chqadan ogoh bo‘lmaganda, tariqat yo‘liga kirgan solik hisoblanmasdi. Biz shundan ham ko‘rishimiz mumkinki, tariqat yo‘li bunchalik mashaqqatli yo‘l bo‘lmaganda, Shayx San’onday dinga o‘zini bag‘ishlagan odam Rumga kelib sarson-sargardon yurmas edi.

“Nencromantical, think you not? I am here to creep into the woods and meet disciple of the Witch of-Endor. To exchange my eternal soul against the secrets of the other world. How does that cap fit?” The actor passed the paper back to him. “You choose to be playful. I think this not the moment.” ‘Then let us no more nonsense. I bring no harm to king or country, nor to any person thereof. I place neither body nor soul in danger. My mind perhaps, but a man’s mind is his own-business. What I am upon may be a wild goose chase, a foolish dream. Whom I wish”[27]

Endor jodugari – Muqaddas Kitobda tilga olingan sehrgar ayol bo‘lib, shoh Shoulning iltimosiga binoan Shomuil payg‘ambarning ruhini chaqirgan. Ushbu allyuziyaning dominant xususiyati shundaki, “Qurt” asarining asosi, syujeti janob Bartolomyu sirli ayol bilan uchrashgandan so‘ng g‘oyib bo‘lishi asosiga qurilgan.

Allyuziya ham ma’naviy, ham somatik madaniy kod denotatiga borib taqalishi mumkin. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida diniy antroponimlar (*Ruxulloh, Iso Masih, Ayyub, Dovud, Nuh, Sulaymon, Xizr, Yusuf, Yaqub* kabilar) mumtoz adabiyotdagiga nisbatan kamroq uchraydi. Buning bir nechta sabablari bor:

1.Mumtoz o‘zbek adabiyoti, asosan, islomiy ta’limot, “Qur’oni Karim” va hadislardan ilhomlangan. Shu manbalardagi diniy g‘oyalar badiiy uslubda targ‘ib etilgani tufayli, “Qur’on”dagi antroponimlar mumtoz she’riyatda muhim ahamiyat kasb etgan.

2. “Qur’oni Karim” ta’sirida yozilgan qissalar eski o‘zbek adabiy tilida ko‘p yaratilgan bo‘lib, ulardagi g‘oyalar hamon o‘sha davr ahlining ongiga chuqur singan. Bu esa shoirlarga asarlarida ogoh va ta’sirchan tilda, shu jumladan, oshiq va ma’shuqaning ichki va tashqi olamini aniq ifodalashda diniy antroponimlardan foydalanish imkonini bergan.

Allyuziyalarda odamlarning tabiat va xislatlari – insoniylik, mardlik, jasurlik, aql-zakovat, saxiylik, qo‘rqoqlik, zulmkorlik, rashkchilik, xasislik kabilar asosiy e’tiborga olinadi va bu xislatlar barchaga yoki ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan nomlar orqali ifodalanadi. Masalan, ijobiy xislatlarga ega shaxslarga oid allyuziyalar qatoridan Margaret Tetcherni *“temir xotin”*, Maykl Jeksonni *“pop qiroli*”, Onna Madonnani *“pop malikasi*”, Eynshteynni “*aqlli kishi”* sifatida yodga olish mumkin.

E’tiborli jihati shundaki, keyingi davr adabiyoti va publitsistikasida mashhur shaxslar ko‘proq o‘z nomi bilan emas, balki epitetli nomlar va tavsifiy iboralar orqali yoritilishi keng tarqalgan. O‘zbek va ingliz tillarida yaratilgan she’riy asarlardagi allyuziyalarning lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy aspektda tahlil etish natijalariga ko‘ra ayrim xulosalarga kelish mumkin. Ikkala tilga mansub poetik asarlardagi allyuziyalarni ikki nuqtayi nazardan o‘rganish mumkin. Birinchisi, adabiy tilda ishlatilgan tasviriy-uslubiy vosita sifatida, ikkinchisi, badiiy nutqda

[27] Fowles J. A Maggot. - London: “Vintage”, 1996. – P. 42.

qo‘llanilgan ko‘chim (majoz) sifatida.

4-jadval

Madaniy kodlar va allyuziv ifoda

Madaniy kod	Ifodalanish manbasi	Allyuziv misollar	Semantik yuk
Ma’naviy kod	Diniy, axloqiy va falsafiy matnlar	Yusuf, Dovud, Qorun, San’on	Sabr, hikmat, go‘zallik, boylik, tavba yoki isyon
Mifologik kod	Mif va afsonalar	Orpheus, Hercules, Sisyphus, Laocoon	Qat’iyat, kuch, mashaqqat, azob
Temporal kod	Tarixiy davr va xotira	Caesar, Napoleon, Bobur, Qodiriy	Tarixiy tajriba va ijtimoiy baho
Predmetli kod	Realiya va moddiy madaniyat	Savile Row, Sahrodagi Luvr	Nufuz, estetik mezon, madaniy maqom
Badiiy kod	Adabiy qahramon va syujet	Hamlet, Farhod, Majnun, Ra’no	Ichki konflikt, sadoqat, muhabbat va ramziylik

Nazarda tutilgan tillarda yaratilgan adabiy asarlarda allyuziyalar badiiy obrazning ichki olami va tashqi qiyofasini, uning eng muhim fazilatlari, xarakteri hamda tabiatini yaqqol ochib berishga xizmat qilganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, ular mavhum tushunchalarni aniq va yorqin ifodalashga yordam bergan.

Ikkala xalq adabiyotida allyuziyalar nutqni bezash, so‘zlovchining bilim va madaniy darajasini namoyon etish, tinglovchiga ma’lumot yetkazish va uni ishontirish vazifalarini bajargan. Bu uslubiy vositalar asosiy matn mohiyatini aniq tushunishga yordam berib, kitobxonda asarga qiziqish uyg‘otgan. Shu bilan birga, allyuziyalar ishontirish vazifasidan tashqari motivatsion vazifani ham bajargan.

XULOSA

1. Allyuziya − stilistik figura, o‘xshash so‘z yoki hammaga ma’lum bo‘lgan real, fakt, tarixiy voqea, adabiy asarni eslatish orqali qilingan ishora. Allyuziyani talqin qilishdagi turli yondashuvlarni tahlil qilish uning mohiyatiga doir xususiyatlarni chuqur aniqlash imkonini berdi. Mazkur stilistik usulning asosi unda implitsit axborotning mavjudligidadir. Aksariyat ilmiy-nazariy ta’riflarda allyuziya biror adabiy yoki hayotiy faktga ishora sifatida talqin qilinadi. Allyuziya ma’lum bir birlikning semantik tarkibidagi ma’lumotning boshqa manbadan o‘zlashtirilishini ifodalaydi. Allyuziya, birinchidan, lingvomadaniy hamjamiyat uchun ahamiyatli bo‘lgan u yoki bu hodisa yoki obyektga ishora qiladi, ikkinchidan, allyuziya ma’lum bir faktni eslatib o‘tadi va unda madaniy tushuncha aks etadi.

2. Allyuziya bilan o‘xshash va yondosh bo’lgan bir qator tushunchalar mavjud, shuning uchun uni shunga o‘xshash hodisalardan farqlash zarur. Allyuziyalar pretsedent hodisalardan farqli o‘laroq, belgi funksiyasini bajarishga qaratilmagan,

pretsedent hodisalar u yoki bu lingvomadaniy hamjamiyatning madaniy makoni bilan chegaralangan holda, “o‘ziniki” va “begona”ni identifikatsiya qiluvchi o‘ziga xos “o‘ron” (parol) bo‘lib xizmat qiladi. Allyuziya va matn reminissensiyalari kabi tushunchalarning o‘zaro munosabati masalasi dolzarb masalalardan biridir. Allyuziyalar va matnli reminissensiyalar manba adabiy bo‘lsa qisman mos keladi. Matnda aks etmagan madaniy, tarixiy va maishiy faktlarga ishoralar matnli reminissensiyalar sohasiga kirmaydi.

